

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
URGANCH FILIALI**

---

**Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga qo‘yildi**

Axborot texnologiyalari

kafedra mudiri

\_\_\_\_\_ Xalmuratov O.U.

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 yil

**Raximbayev Musobek Komiljon o‘g‘lining**

**FERMER XO‘JALIKLARI MAHSULOTLARI EKSPORTI AXBOROT**

**TIZIMINI YARATISH**

mavzusidagi

5330500-“Kompyuter injiniringi” (Kompyuter injiniring) ta’lim yo‘nalishi  
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bitiruvchi \_\_\_\_\_  
(imzo)

Raximbaev M.  
\_\_\_\_\_  
(f.i.o.)

Rahbar \_\_\_\_\_  
(imzo)

Xojiboyev J.  
\_\_\_\_\_  
(f.i.o.)

Taqrizchi \_\_\_\_\_  
(imzo)

Rahmanov R.  
\_\_\_\_\_  
(f.i.o.)

Urganch – 2018 y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
UNIVERSITETI URGANCH FILIALI

Kompyuter injiniringi fakulteti  
Axborot texnologiyalari kafedrası

5330501-Kompyuter injiniring ("Kompyuter injiniringi") yo'nalishi

**TASDIQLAYMAN**

Axborot texnologiyalari

kafedrası mudiri

\_\_\_\_\_ O. Xolmurotov

«\_\_\_»\_\_\_\_\_2018

Bitiruv malakaviy ishiga

**TOPSHIRIQ**

Raxibaev Musobek Komiljon o'g'lining

(famiyasi, ismi, otasining ismi)

1. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: Fermer xo'jaliklari mahsulotlari eksporti axborot tizimini yaratish.
2. TATU Urganch filialining «20» dekabr 2017 yil sanadagi № \_\_\_ - \_\_ sonli buyruqi bilan tasdiqdangan.
3. Ishni himoyaga topshirish muddati \_\_\_\_\_ 25.06.2018 \_\_\_\_\_
4. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar: Fermer xo'jaligi mahsulotlari va savdo tizmlari haqida ma'lumotlar izlandi.
5. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati): Online savdo qilish tizimi dasturiy ta'minotini loyihasini ishlab chiqish; Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda xavfsizlikga ro'ya qilish; Xulosa; Adabiyotlar va ilova.
6. Grafik materiallar ro'yxati: Bitiruv malakaviy ishni hisobot qismini bajarish davomida rasmlardan va algoritm chizmalaridan foydalanilgan. Prezentsiya slaydlardan tashkil topgan.
7. Topshiriq berilgan sana \_\_\_\_\_ 18.01.2018 \_\_\_\_\_

Rahbar \_\_\_\_\_

(imzo)

Topshiriq oldim \_\_\_\_\_

(imzo)

## 8. Ishning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilar

Qism	Maslahatchi o'qituvchining F.I.O.	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
1. Tizimli tahlil va masalaning qo'yilishi	Xojiboyev J		
2. Asosiy qism	Xojiboyev J		
3. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi	Xojiboyev J		

## 9. Ishni bajarish grafigi

Nº	Ish qismlarining nomi	Bajarish muddati	Rahbar imzosi
1	Bitiruv malakaviy mavzusini tanlash va tasdiqlash	18.01.2018	
2	Fermer xo'jaligi mahsulotlari va savdo tizimlarini o'rganib chiqish	29.01.2018	
3	Onlayn savdo tizimlari va ular haqida ma'lumotlarni o'rganish	12.02.2018	
4	Onlayn savdo tizimini qurish uchun ishlatiladigan vositalaridan foydalanish	26.02.2018	
5	Onlayn savdo qilish tizimi dasturiy ta'minotni loyihasi va uni ishlab chiqish	12.03.2018	
6	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi topshiriqlarini bajarish	26.03.2018	
7	Xulosa qismini yozish	09.04.2018	
8	Adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish	30.04.2018	
9	Chizma – grafik ishlar, prezentatsiya tayyorlash	14.05.2018	
10	Bitiruv ishini rasmiylashtirish (perepletlash) va kafedraga topshirish	05.06.2018	

Bitiruvchi \_\_\_\_\_ « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018  
(imzo)

Rahbar \_\_\_\_\_ « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2018  
(imzo)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	5
<b>I-BOB. FERMER XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAVDO TIZIMLARI</b> .....	8
1.1-§. Fermer xo'jaligi mahsulotlari va savdo tizimlari .....	8
1.2-§. Fermer xo'jaligi mahsulotlari onlayn savdo qilish afzalliklari .....	15
1.3-§. Onlayn savdo tizimlari va ular haqida ma'lumotlar .....	17
1.4-§. Masalani qo'yilishi .....	24
<b>II BOB. ONLAYN SAVDO TIZIMI ALGORITMLARI VA ILOVALARI</b> ..	25
2.1-§. Onlayn savdo tizimini qurish uchun ishlatiladigan vositalari .....	25
2.2-§. Onlayn savdo qilish tizimi dasturiy ta'minotni loyihasi va uni ishlab chiqish .....	27
2.3-§. Foydalanuvchi uchun yo'riqnoma .....	35
<b>III-BOB. KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA XAVFSIZLIKGA ROIYA QILISH</b> .....	44
3.1-§. Kompyuterda ishlaganda xavfsizlik choralari .....	44
3.2-§. EHM operatorining charchashini oldini olish .....	48
<b>XULOSA</b> .....	56
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	57
<b>ILOVALAR</b> .....	59

## KIRISH

Ma'lumki, hozirgi davrda davlatimiz tomonidan mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini oshirish, O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni, ayniqsa yangi uzilgan meva-sabzavotlarni xorijiy bozorlarga eksport qilishda yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy mahsulotlarni eksport qilish uchun tadbirkorlarimizga qo'shimcha imtiyozlarni joriy etish borasida qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy eksporter korxonalarini qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 21 iyundagi PQ-3077-sonli Qaroriga muvofiq mahalliy tadbirkorlik sub'ektlariga yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy bozorlarga eksport qilish imkoniyati yaratib bermoqda.

Shu sababli iqtisodiy o'sishga intilgan holda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini ustuvor vazifa qilib qo'ydi. Mamlakat uchun birinchi bo'lib Uztrade eksport kompaniyasi oktabr oyida bir tonna yangi uzilgan qovunlarni Amerika bozoriga yetkazib bergani shunga misoldir.

Respublikamizda bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish yuzasidan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda va juda tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli dasturiy ta'minotlarga talab borgan sari ortib bormoqda. Hozirda kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari ishlatilmaydigan sohaning deyarli o'zi yo'q.

**Masalaning dolzarbligi:** Bizga ma'lumki hozirda mamlakatimizda dunyodagi eng xushtam qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishga bo'lgan ehtiyojlar ko'pligi sababli har bir fermer xo'jaligi rahbarlariga imtiyoz sifatida o'z mahsulotlarini reklama qilish va ular haqida to'liq ma'lumot berish, hamda ularni sotish uchun onlayn savdo tizimi qurish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Obyekti va predmeti:** Ushbu bitiruv malakaviy ishining ob'yekti sifatida yurtimizda yetishtiriluvchi mahsulotlarni eksport qilish onlayn savdo tizimi olindi.

Bunga sabab qilib hozirda yurtimizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati va xushtamligi, mahsulotlarga bo'lgan talablar ko'pligidir. Bitiruv malakaviy ishining predmeti esa ushbu tizimni qurishda qo'llanilgan dasturlash tillaridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mahsulotlarni jahon bozorlariga yetkazish bo'yicha Nyu-Yorkda joylashgan O'zbekiston-Amerika savdo korporatsiyasi qovunlarni Amerika tomonida sotishni rejalashtirmoqda. Bir necha oy avval boshlangan O'zbekiston va Amerika ishbilarmonlarini yaqinlashtirish jarayoni O'zbekistonlik fermerlar uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Joriy yilning 20 - sentabrda Nyu-York shahrida AQSH-O'zbekiston biznes forumida qatnashchilar 2,6 milliard AQSH dollari qiymatidagi (20,6 trillion O'zbek so'mi) shartnomalarni imzoladilar.

Eksportchi bo'lgan Uztrade 5,1 million AQSH dollari (41,1 milliard O'zbek so'mi) qiymatidagi to'qimachilik mahsulotlari, quritilgan mevalar va sabzavotlar hamda boshqa mahsulotlarni Amerika Qo'shma Shtatlariga eksport qilish bo'yicha shartnomalarni imzoladi.

Yuqorida sanab o'tilganlardan ma'lumki hozirgi davrda biz jahon bozorlariga chiqib ketishimiz imkoni juda kattadir. Fermer xo'jaliklari mahsulotlari eksporti yanada oshadi, shuning uchun savdogarlar uchun o'z mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarish chora tadbirlari rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda jahon bozorlarida o'z mahsulotlaringizni reklama qilish va sotish uchun xizmat qiluvchi vositalar juda ko'p sanaladi. Shulardan eng kuchli bo'lgan vosita bu internet orqali mahsulotlarni jahon bozoriga tanishtirishdir.

Jahon bozorlariga mahsulotlarni olib chiqish uchun siz o'z mahsulotlaringizni kuchli reklama ostida chiqarishingiz kerak bo'ladi. Buning uchun sizga internet orqali savdo qiluvchi web sahifalar qo'l keladi. Bozor iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatayotgan internet do'konlar hayotimizning bir qismiga aylanib bormoqda. Biz sotib oluvchi mahsulotimiz narxi va uning qanday yetishtirilishini oldindan to'liq bilish bu juda muxim sanaladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozorlariga chiqarish uchun biz eng zamonaviy reklama vositalaridan foydalanishimiz kerak hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab mahsulotlarni almashinuvchi onlayn savdo qiluvchi saytlar juda ko'p hisoblanadi. Fermer xo'jaligi mahsulotlarini xorijga olib chiqish va sotish uchun ham biz onlayn savdo saytlaridan foydalansak bo'ladi. Onlayn savdo qiluvchi saytlar asosan jahon savdo tizimiga bog'lanish uchun juda yaxshi tizim hisoblanadi.

Onlayn savdo qilish tizimlarining asosiy afzalliklari mahsulotlarni savdo qiluvchi firmalarga mahsulot haqida to'liq va aniq xabar berish imkonini beradi.

Jahon bozorlarida aylanayotgan tovarlarning sifati mijozlar uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Savdo sifatini yaxshilash, sarf xarajatlarni tejash uchun ham onlayn savdo tizimi muxim sanaladi. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning ko'pchiligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'lgani uchun biz yuqori darajali axborot texnologiyalari orqali savdoni amalga oshirishimiz va savdo sotiq orqali butun jahon hamjamiyatlariga mahsulotlar sifati va mazasini ko'rsatib qo'yishimiz zarur sanaladi. Onlayn savdo tizimlarini qurish va ulardan samarali foydalanish jahon bozorlariga tezda kirib borish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan mahsulotlarni jahon bozorlariga olib kirish va chet davlatlardan valyuta kirib kelishini yaxshilash maqsadida ko'plab tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Ishlab chiqariluvchi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini onlayn savdo qilish tizimi afzalliklari haqida to'xtalsak: asos qilib biz reklamaga chuqur yondashamiz. Dunyoga tanilishning eng qulay usuli bu reklama orqali ma'lumot berish hisoblanadi. Shuni takidlab o'tish zarurki mahsulotlarni savdo qilish paytida shartnomalar ham onlayn tarzda bo'lib o'tish hamma uchun ham qulay hisoblanadi.

Mahsulotni sotib oluvchi tashkilot u haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi va qancha kerak bo'lsa shuncha buyurtma qilish imkoniga ega bo'ladi. Mahsulotni yetkazib berish esa fermer xo'jalik zimmasidan iborat bo'ladi. Bunday hamkorlik bilan biz jahon bozorida o'z o'rnimizni topishimiz onsonroq kechadi.

## **I-BOB. FERMER XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAVDO TIZIMLARI**

### **1.1-§. Fermer xo'jaligi mahsulotlari va savdo tizimlari**

Jahonda kamdan-kam uchraydigan tabiiy va tuproq iqlim sharoitlarining uyg'unligi tufayli dunyodagi eng mazali va eng foydali meva-sabzavotlar faqat bizning mintaqamizda yetishtirilishi mumkin. Shuning uchun ham sahovatli o'zbek zaminida yetishtiriladigan meva va sabzavotlar yuqori nufuzga ega bo'lgan haqiqiy brendga – tovar belgisiga aylanib, bu mahsulotlarni sotib oladigan mamlakatlarda ular yuksak raqobatdoshligi bilan ajralib turadi.

Agrar sohani ravnaq toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yer haqiqiy egasini topdi, yangi bog'lar barpo etilib, oziq-ovqat ekinlari maydoni kengaytirildi. Hayot tarzimiz, yerga munosabatimiz tubdan o'zgardi. Dehqonchilikning katta ilmi, o'ziga xos madaniyat ekanligi anglab yetildi. 2006 yil 11-yanvardagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini joriy qilish va fermerlik harakatining yanada rivojlanishi uchun keng yo'l ochib berdi. Natijada intensiv texnologiyalar joriy qilinib, sifatli va mo'l hosil yetishtirilmoqda. Aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilibgina qolmasdan, tashqi bozorga ham mahsulot chiqarish yo'lga qo'yildi. Eksport geografiyasi tobora kengaymoqda.

Xalqaro mutaxassislarning e'tiroficha, yurtimizda yetishtirilgan meva sabzavot, uzum va poliz mahsulotlari mazasi shirinligi, xushta`mligi, eng asosiysi, foydali va to'yimlilik bilan jahon bozorida juda xaridorbobdir.

Joriy yilning yozida poytaxtimizda bo'lib o'tgan Xalqaro meva-sabzavot yarmarkasi bizda katta taasurot qoldirdi, – deydi Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi “Ekoagroprodukt” fermer xo'jaligi ish boshqaruvchisi Qahramon Ilhombekov. – Nufuzli tadbirning xorijlik ishtirokchilari bizning bog'imizga ham keldi. 140 gektar maydondagi intensiv bog'da g'arq pishgan olma, olxo'ri, o'rik, nok, shaftoli, gilos kabi mevalar mehmonlarga juda manzur bo'ldi. Oftob nuridan rang olgan, hidi dimog'ingizni qitiqlaydigan mevalar kimni maftun etmaydi deysiz. Mahsulotlarimizni MDH va Yevropa mamlakatlariga eksport qilmoqdamiz.



Yurtimiz tuprog'i oltinga teng. Buni dalaning o'zidanoq saralanib eksportga jo'natilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining kundan-kunga ortib borayotgani ham ifodalab turibdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ko'magida joriy yilning o'tgan davrida 2 milliard 184 million dollarlik shartnomalar imzolangani buning yorqin isbotidir.

Yurtimizda saxiy quyosh taftida pishib yetilgan, mahalliy korxonalarda «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi bilan eksport qilinayotgan mahsulotlar dunyoda brend darajasiga ko'tarilib, xaridorlar e'tiborini tortayotgani bor gap.

Toshkentda bo'lib o'tgan Xalqaro meva-sabzavot yarmarkasida bunga yana bir bor guvoh bo'ldik.

Qovunni bir hidlab ko'ring-a, farang atridan qolishmaydi-ya, – deydi Ispaniya'ning “Lendel Media Solutions” kompaniyasi xalqaro tijorat menejyeri Raul Mir Soll. – Mazasini aytmay sizmi?! Xorazmda yetishtirilgan bu qovunlar bizga juda yoqdi.

Tadbirkorlarga yaratilgan sharoitlardan unumli foydalangan korxonalardan biri “Xorazm qovunlari” mas'uliyati cheklangan jamiyati zamonaviy uskunalar ko'magida Janubiy Koreyaga qovun eksportini yo'lga qo'ydi, – deydi Xorazm viloyati hududlarni kompleks rivojlantirish yig'ma boshqarmasi boshlig'i Davron Sobirov. – Viloyatimizdagi 30 korxonada joriy yilning to'qqiz oyida 7,9 million dollarlik mahsulot eksport qildi. Yil oxiriga qadar yana 5,7 million dollarlik mahsulot xorijga yetkazib beriladi.

Shahrisabz tumanidagi “Shahrisabz meva-sabzavot” agrofirma joriy yil hisobidan chet ellik hamkorlar bilan mahsulot savdosini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga ega. Ayni vaqtda hamkorlarimizga qariyb 80 ming dollarlik mahsulot yetkazib berdik, – deydi agrofirma rahbari Saidjon Shokirov. – Yaqin orada 60 tonnaga yaqin xurmo va uzum jo'natamiz. Rossiyaga yong'oq, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonga mosh eksporti bo'yicha kelishib olganmiz. Korxonamizda meva quritishni yo'lga qo'yib, olma va olxo'rini tabiiy usulda quritdik. Saralab, qutilarga joylangan bu mahsulotlarning ham xaridori tayin. UFA shahrida savdo uyimizni

ochdik.

Xo'jaligimiz uzumchilikka ixtisoslashgan, – deydi Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi “Jaf” fermer xo'jaligi rahbari Asatilla Jo'rayev. – 80 gektar maydonga uzumning oq hamda qora kishmish navlarini ekanmiz. Hosilning katta qismini quritib, har yili o'rtacha 4-5 tonna mayiz olamiz. Joriy yilda Rossiyaga 40 tonna uzum eksport qildik. Birlashgan Arab Amirliklari bilan 136 ming 700 dollar va Xitoyga 160 ming dollarlik mayiz yetkazib berish borasida shartnomamiz bor.

Avvallari mevalar pishish mavsumiga qarab baholanardi. Pishiqlik vaqtida arzon noz-ne'matlar qishda “anqoning urug'i”ga aylanar, biror joydan surishtirsangiz “hozir mavsumi bo'lmagan narsani so'rayapsiz-da”, deb javob qaytarardi. Keyingi yillarda bozorlarda sotilayotgan meva-sabzavotlarga nisbatan “mavsum” so'zini ishlatish ijobiy ma'noda urfdan qolmoqda. Sababi, bog'bonu sohibkorlarning fidokorona mehnati evaziga yetishtirilgan noz-ne'matlarni yil davomida saqlash infratuzilmasi shakllandi. Joylarda ishga tushirilgan sovutgichlar bozorlarimizning qishda ham yozdagidek fayzli bo'lishini ta'minlamoqda.

Bir vaqtlari yetishtirgan mahsulotining ko'pgina qismi tez-nobud bo'lishidan aziyat chekkan sohibkor, endilikda ularni sovutish omborlarida saqlamoqda. Bu infratuzilma borgan sari takomillashib bormoqda. Misol uchun, o'tgan yilda 77 ming 800 tonna sig'imga ega 114 yangi sovutish kamerasi qurildi. Mavjudlari ham zamonaviy tarzda modernizatsiya qilingach, meva-sabzavot saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetdi. Bu ichki bozorda narx-navoni barqaror ushlab turish va kuzgi-qishki mavsumda ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kafolatli ta'minlash imkonini bermoqda.

Bugun mahsulotlarimiz yilning istalgan vaqtida xorijiy mamlakatlarga jo'natilmoqda. Norvegiya, Vetnam, Tailand, Braziliya, Kipr, Makedoniya, AQSh va Lotin Amerikasi davlatlari aholisi ham O'zbekiston mirishkorlari yetishtirgan mahsulotlarni sevib iste'mol qilmoqda.

Bundan 25 yil muqaddam asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini import hisobidan qoplagan O'zbekiston endilikda aholining kundalik iste'mol tovarlariga bo'lgan talabini yurtimizda yetishtirilgan mahsulotlar hisobidan ta'minlab, eksport hajmini

ham oshirish imkoniga ega bo'ldi. O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq va boshqa ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda yetakchi o'nta davlatdan biriga aylandi. Jahonning 80 davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar yetkazib berilmoqda.

Mahsulot qanchalik sifatli bo'lsa, eksport ko'lami ham shuncha oshadi. Bundan barcha birdek manfaatdor. Hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etiladi. Ko'plab ish o'rinlari yaratiladi. Bu xalqimiz farovonligining yanada ortishi, iqtisodiyotimizning ravnaq topishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda "Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2520-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga binoan mamlakatimizga qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bilan muntazam ta'minlash, ishchi iste'mol bozorini yil davomida sabzavotlar, kartoshka, meva va poliz mahsulotlari bilan barqaror to'ldirish, shuningdek, tashqi bozorlarda xaridorgir va raqobatbardosh bo'lgan ho'l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmini ko'paytirish va turlarini kengaytirish uchun ularni yetishtirish, ishlab chiqarish va xarid qilish bo'yicha yagona tizim shakllantirildi. Shu bilan bir qatorda, Respublikamizning barcha viloyatlarida ho'l meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum mahsulotlarini yetishtirish hamda nes-nobud qilmasdan qayta ishlash muhim vazifa qilib belgilab berildi.

Qashqadaryo viloyatida ho'l meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzum mahsulotlarini yetishtirishga iqtisoslashtirilgan 6 ta tumandagi fermer va dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga chiqarishga ko'maklashishi uchun jami 32 ta korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda.

Eksportga mo'ljallangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini belgilangan tartibda, tezkor ravishda sertifikatlashtirish ishlarini o'z vaqtida olib borish maqsadida Qashqadaryo standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi, Qashqadaryo sinov va sertifikatlashtirish markazi davlat korxonalarini tomonidan Qashqadaryo viloyat

o‘simlik karantini davlat inspeksiyalari hamkorlikda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

“O‘zstandart” agentligining mahsulotlarni eksport qilishga ko‘maklashish byurosi tomonidan quyidagi maslahat va xizmatlar bepul ko‘rsatiladi.

Eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchilarga standartlar, sertifikatlash, yorliqlash, o‘rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo‘yicha bepul maslahat xizmatlari ko‘rsatish;

Mahsulotlarni xorijiy bozorlarga kiritish bo‘yicha axborot-maslahat yordami ko‘rsatish. Mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va byudjetga moliyaviy tushumlarni oshirish ko‘pincha meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni (keyingi o‘rinlarda meva-sabzavot mahsulotlari deb yuritiladi) mahalliy eksport qiluvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish va qator tovarlarni eksport qilish tartibini soddalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, meva-sabzavot mahsulotlarining eksporti hajmini ko‘paytirish va turlarini kengaytirishga to‘sqinlik qiluvchi kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishi tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, jismoniy shaxslar tomonidan ularning ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish nazarda tutildi. Xususan, bugungi kunda eksportga yo‘naltirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining 90 foizidan ortig‘i kichik ishlab chiqaruvchilar tomonidan yordamchi xo‘jaliklarda, shu jumladan tomorqa uchastkalarida yetishtirilmoqda. Mazkur ishlab chiqaruvchilar chet el xaridorlari bilan shartnomalar tuzish va ruxsat beruvchi tartib-taomillardan o‘tishi lozimligi sababli mahsulotlarini mustaqil ravishda eksport qilish imkoniyatiga ega emas. Shuni hisobga olgan holda, davlat rahbarining qarori bilan tadbirkorlik sub‘yektlariga eksport kontrakti tuzmasdan

ularning to'lovi va yetkazib berilishi bo'yicha shartlarga rioya qilgan holda invoys asosida meva-sabzavot mahsulotlarining eksportini amalga oshirish huquqi berildi, bu xalqaro amaliyotga muvofiqdir.

Qaror bilan bojxona organlari tomonidan eksport qilinayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining tabiiy yo'qotish normativini hisobga olish tartibi mavjud emasligi bilan bog'liq boshqa muammoli masala o'z yechimini topdi.

Hisobga olinmagan tabiiy yo'qotish asossiz debitor qarzdorlik yuzaga kelishiga, tegishlicha, kelib tushmagan valyuta mablag'larining 70 foiziga qadar miqdorda jarima qo'llanilishiga olib kelgan. Bundan kelib chiqqan holda, qisqa muddatda eksport qilingan meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, tashish va sotishda tabiiy yo'qotish normativlari, shuningdek, ularning faktura qiymatiga tuzatishlar kiritish tartibini belgilash topshirildi. Keyinchalik eksport qilish uchun fuqarolardan meva-sabzavot mahsulotlarini sotib olish bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarning faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar nazarda tutildi. Xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar kelgusida jismoniy shaxslar tomonidan mahsulotlarning yetishtirilganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilmasdan qo'llanilishi belgilanmoqda. Agar eksport qiluvchida oldin amalga oshirilgan eksportga yetkazib berish bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik mavjud bo'lsa, faqat muddati o'tgan debitor qarzdorlikka yo'l qo'ygan chet el xaridoriga tovarlarni chiqarish ruxsat etilmaydi. Shu bilan bir qatorda, qaror bilan meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish ko'rik hujjati tuzilganidan keyin 3 soatdan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladigan tartib joriy etildi.

Meva-sabzavot va tez buziladigan mahsulotlarning eksporti uchun zarur bo'lgan sertifikat berish muddati eksport qiluvchi tomonidan hujjatlar taqdim qilingan vaqtdan boshlab bir ish kuniga qadar qisqartirildi.

Amaldagi import bojxona bojlari, aksiz solig'i va yig'imlar stavkalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi sanitariya normalarini tanqidiy o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot mahsulotlarining savdosi va eksporti sohasidagi xalqaro shartnomalari inventarizatsiyadan o'tkaziladi. Uning

yakunlari bo'yicha yangi xalqaro shartnomalar tuzish va amaldagilarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar tayyorlanadi shuningdek, davlat rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasida berilgan muvofiqlik sertifikatlarining mahalliy meva-sabzavot mahsulotlari asosiy iste'mol qilinadigan davlatlarda tan olinishi, shuningdek, laboratoriyalar modernizatsiya qilinishini ta'minlash choralarini ko'rish topshirilgan. Mazkur topshiriqning amalga oshirilishi mahalliy yetkazib beruvchilar xorijiy bozorlarda ularning mahsulotlari meva-sabzavot mahsulotlarini potensial import qiluvchi ko'pgina mamlakatlar standartlari, sanitariya va fitosanitariya talablariga muvofiq kelmasligi bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Qarorda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish sohasida infratuzilmalarni yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu maqsadda haqiqiy ehtiyoj hamda xalqaro va xorijiy moliya institutlarining chet el investitsiyalari hisobiga meva-sabzavot mahsulotlarini tashish yo'nalishlarini o'rganish asosida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlash, saqlash va tashish bo'yicha logistika markazlari tashkil etiladi. Hozirgi vaqtda mahalliy ishlab chiqaruvchilar yetishtirgan mahsulotlari, ularning navi va narxlari, shuningdek, chet el xaridorlari tomonidan ularni sotib olish uchun buyurtmalari to'g'risidagi foydalanilayotgan tarqoq axborot bazalari import va eksport qiluvchilar uchun yagona portalga birlashtiriladi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksportini rivojlantirish bo'yicha qayd etilgan chora-tadbirlar bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan ishchi guruh tashkil etildi va unga 2018 yil 1-fevralga qadar milliy bojxona tartib-taomillari va eksport-import operatsiyalarini xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha takliflar tayyorlash va hukumatga kiritish vazifasi yuklatildi. Mazkur qaror tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish va meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ish sharoitlarini yaxshilash imkonini beradi.

## **1.2-§. Fermer xo'jaligi mahsulotlari onlayn savdo qilish afzalliklari**

Har-bir harakat o'z mevasini bergani kabi dunyo bozorlariga kirib borishga bo'lgan intilish shiddat bilan davom qilmoqda savdo qilish va mahsulotlarni boshqa davlatlarga tanitish maqsadida ko'plab ishlarga qo'l urilmoqda.

Dunyoga tanilishning eng qulay usuli bu internet orqali reklamalar qilish hisoblanadi. Dunyo bo'ylab internetdan foydalanuvchi va uning ortidan foyda ortiruvchi firmalar juda ko'p hisoblanadi.

Yurtimizda 2017 yilning 1-iyulidan boshlab barcha tadbirkorlik sub'yektlariga yangi meva-sabzavot mahsulotlari, uzum va poliz mahsulotlarini to'lovni oldindan 100 foiz amalga oshirish sharti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida eksport qilish huquqi berildi.

Ta'kidlash joizki, ushbu choralar meva-sabzavot mahsulotlarining eksportini kengaytirish bilan birgalikda dehqon va fermer xo'jaliklarini tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, yer resurslaridan samarali foydalanish, shu jumladan, takroriy ekinlar ekish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirishga rag'batlantiradi. Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining narxi va sifati bo'yicha tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi.

Eng muhimi, dehqon va fermer xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotlarining haqiqiy egasi sifatida ulardan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, mustaqil eksport qilish, daromadlarini oshirish, oilasining moddiy farovonligini ko'tarishlari mumkin bo'ladi, qo'shimcha valyuta tushumlari esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va ularni chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi loyihalarni investitsiyalash uchun imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga, mahalliy meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish uchun chet elda qabul qilingan me'yor va standartlarga mahsulotlarning muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Shu maqsadda Prezident qarori bilan qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga bir oy muddatda milliy qonunchilik hujjatlariga xalqaro karantin qoidalarini tatbiq etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash topshirildi. Bu eksport bilan

tegishli tajriba va zarur mablag'larga ega, doimiy ravishda jahon bozori kon'yunkturasini kuzatib boradigan hamda tashqi bozorlarda ishonchli hamkorlari bor ixtisoslashgan kompaniyalarning mahsulotlar eksporti bilan shug'ullanishi xalqaro amaliyotga to'liq mos keladi.

Agarda biz savdo qilishning oddiy usulidan foydalansak ya'ni mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishimiz qanday tarzda bo'lib o'tishini ko'rib chiqamiz buning uchun biz mahsulotlarimizni standartdan o'tkazishimiz kerak bo'ladi:

-eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga standartlar, sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar yuzasidan xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha bepul maslahat xizmatlari ko'rsatish;

-eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda xalqaro va mamlakatlararo standartlar talablarini joriy etish va ularga erishish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-korxonalariga mahsulotni xorijiy bozorlarga kiritish bo'yicha axborot-maslahat yordami ko'rsatish

-mahsulotni standartlashtirish, sertifikatlash, yorliqlash, o'rash va boshqa parametrlar bo'yicha xalqaro va mamlakatlararo talablar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish va doimiy yangilab borish.

Standartlashtirish, Metrologiya, Mahsulotlarni sertifikatlash, qadoqlash, yorliqlash va boshqa parametrlar bo'yicha, organlar va laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish va attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha maslahatchilari, hamda hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalaridagi vakil (maslahatchilari) faoliyat ko'rsatmoqda.

Onlayn savdo tizimini yaratish hozirda juda keng tarqalgan hisoblanadi. Savdo sotiq ishlari to'g'ridan to'g'ri onlayn tarzda bo'lib o'tadi. Onlayn savdoning oddiy savdo qilishdan asosiy farqi bu oddiy savdo qilgan paytda asosiy reklamani faqat bir necha savdo markazlariga ko'rsatishingiz mumkin bo'ladi onlayn savdo yo'lidan ketilsa esa butun dunyo bo'ylab reklama qilish imkonini beradi.



### **1.3-§. Onlayn savdo tizimlari va ular haqida ma'lumotlar**

Dunyo bo'ylab internet tarmog'i orqali bo'lib o'tayotgan savdo tizimlari juda yaxshi va samarali bo'lib bundan onlayn savdo tizimlari juda ko'p sanaladi biz hozir bulardan bira alibaba.com sayti haqida to'xtalib o'tamiz.

Alibaba sayti internet olamidagi eng katta bozordir. Asosan xitoyliklar tomonidan o'ylab topilgan va xitoylik ishlab chiqaruvchi va savdogarlar ko'pchilikni tashkil qilsada, dunyoni juda ko'p mamlakatidan sotuvchilarni topsangiz bo'ladi. Bu yerda qanday xarid qilish xaqida batafsil keltirib, misollar bilan sizga tushuntiramiz. Demak boshladik, alibaba bu internet bozori bo'lib, siz bu yerdan oddiy mayda micro flesh kartadan tortib, katta mashinalarni ham xarid qilishingiz mumkin. Muhimi nimani qidirishni aniq bilsangiz bo'lgani. Demak unutmasligimiz kerakki, alibobo asosan xitoy internet bozori bo'lib, katta miqdordagi tovarlarni ulgurji ya'ni ulgurji oldi sottisi uchun mo'ljallangan.


Asosan xitoylik ishlab chiqaruvchilar bo'lgani uchun, siz bu saytdan xitoyda ishlab chiqariladigan tovarlarni qidirishni va topishni maslahat beramiz. Bu saytdan rossiya mahsulotlarini, yoki koreya aparatlarini qidirish biroz xato bo'ladi, albatta topish mumkin lekin tanlov katta bo'lmaydi. Yoki bir ikki dona narsa xarid qilmoqchi bo'lsangiz ham bu sayt siz uchun emas, buning uchun aliexpress yoki boshqa saytlar mavjud.

Agar siz xitoyda ishlab chiqariladigan mahsulotni qidirayotgan bo'lsangiz va kattaroq partiyada xarid qilmoqchi bo'lsangiz bu sayt aynan siz uchundir. Chunki bugungi kunda bu sayt orqali xitoyda ko'plab firmalar bilan bevosita aloqa o'rnatish va xaridlar qilishingiz mumkin.

Qidiruv satrida mahsulotni firma nomini yozib qidirsangiz topishingiz oson kechadi. Demak bular aytilishi lozim bo'lgan oddiy maslahatlar edi, endi ishga misollarga o'tsak:

Xarid qilishni oddiy DVD Pleyerlarimizda qo'yiladigan DVD VIDEO disk misolida ko'rib chiqamiz, demak ishni qidiruvdan boshlaymiz. Alibaba saytida til ingliz tili bo'lib, buni qidiruvda ham, sotuvchilar bilan so'zlashishda ham qo'lash mumkin. Ruscha yoki boshqa tillarni ishlatishni maslahat bermaymiz, chunki sizni

sayt ham, sotuvchilar ham tushunishmaydi. Buning uchun hozirda Google Tarjimon xizmati mavjud, rus tilini bilsangiz kifoya, yoki o'zbek tilida tarjima biroz xato chiqadi xalos. Misolga qaytsak kerakli buyumni qidiramiz, bizning misolda "dvd pustoy disk" : ingliz tilida: Dvd + r is empty bo'ladi, shu tarzda qidiruvni amalga oshiramiz.




### *1.1-rasm(qidiruv jarayonlari).*

Ko'rib turganingizdek takliflar ko'p va tanlov imkoniyati yuqori, ko'plab sotuvchilar chiqmoqda. Bu ayni muddao, o'zimizga yoqan mahsulotni tanlab sotuvchiga so'rov yuboramiz. So'rov oddiy bo'lishi mumkin, masalan: Salom, bu mahsulot qancha turadi yoki to'liqroq va batafsil chiroyli yozishingiz mumkin. Agar ingliz tilini bilsangiz bu judayam asqotadi.

Qidiruvda sotuvchining yiliga va Trade Assurance ishlatish, ishlatmasligiga e'tibor berish kerak.


Trade Assurance bu sotuvchi va xaridor o'rtasida ishonchni taminlaydigan qism bo'lib, bunda siz xarid qilsangiz alibaba sayti sizni himoyaga oladi va siz xarid qilingan tovarni olganingiz va sifatini maquligini aytmaguningizcha pulni sotuvchiga bermaydi. Demak tez orada sotuvchi bizga javob xati yo'llaydi:



### 1.2-rasm(sotuvchining javob xati).

Javob haqida ko'pincha sizdan qancha miqdorda olishingiz, aynan qanday tovar kerakligi haqida so'ralgan bo'ladi. Yoki yuqoridagidek mahsulotni narxlari aytiladi, bu xitoy yuani yoki, amerika dollarida bo'lishi mumkin. Yuanda bo'lsa ham, siz AQSH dollarida to'lov qilasiz bu shunchaki narxni yuan kursida bog'liqlikni aytilishi bo'ladi. Kursni esa internetdan bitta click orqali bilib olishingiz mumkin. Shuni unutmangki alibaba saytida juda ko'plab dallollar bor, ular katta firmalarning tovarlarini maydaroq partiyada qimmat sotishga urunishadi. Shuning uchun siz kamida 4-5 ta sotuvchi bilan qiziqib ko'rishingiz va iloji boricha ishlab chiqaruvchi firmani topishingiz kerak. Shu o'rinda aytish kerakki ishlab chiqaruvchi firmada, eng kam miqdorda mahsulot sotib olish hajmi, (minimalniy partiya) katta bo'ladi. Narx ham shunga yarasha arzon bo'ladi. Lekin barbir ishlab chiqaruvchi firmani o'zini topish maqul ish, chunki siz ular aytgan ko'p partiyada sotib ololmasangiz ham, mahsulotni asl narxini bilib olib, rasmiy dillerni bog'lanish aloqa ma'lumotlarini bilgan holda xarid qilishingiz mumkin bo'ladi. Mening misolimda aynan shunday bo'ldi. Men o'zimga kerakli mahsulotni, dvd diskni 4-5 ta sotuvchidan narxini so'radim. Ular deyarli hammasi javob yozishdi, narxlar orasida farq katta emas edi. Shuning uchun men diskda nomi bo'lgan ishlab chiqaruvchi bilan ishlashingiz mumkun, lekin afsuski u kamida ancha katta hajmda buyurtma

olishini ma'lum qildi va sizgaga Urumchidagi o'z dilleridan birini raqamini berishi mumkun.



*1.3-rasm(sotuvchi bilan suhbat).*

Diller bilan gaplashishga muvafaq bo'lishingiz mumkin. Ular aytayotgan narx, zavod aytayotgan narxdan birozgina qimmat bo'lishi mumkun. Shuning uchun Trade Assurance qo'llamasligini, bo'lmasa soliq to'lashini aytishi mumkun, bank orqali pul yuborishni taklif qiladi.

Umuman e'tibor bering. Alibaba saytida sotuvchini topganingiz va Trade Assurance orqali xaridni amalga oshirsangiz ham siz to'liq himoyalandiz degani emas. Buning uchun sotuvchini yaxshilab o'rganish kerak, xatto ma'lum haq evaziga xitoyda ishlaydigan o'zbeklar siz topgan sotuvchining firmasi yoki do'koniga borib, tekshirib siz uchun foto va video hisobotlar yuborib, gaplashtirib keladiganlar juda ko'p. Agent orqali firmani tekshirib, uning haqiqiyligiga ishonch hosil qilib, sotuvchi bilan barcha mayda ikir chikirlarni to'liq oldindan gaplashib olsangiz siz va Trade Assurance orqali xaridni amalga oshirsangiz siz uchun xavf umuman bo'lmaydi deb aytish mumkin ! Bu extiyot choralari edi, umuman ishonch ham bo'lishi kerak, hozir internet davrida yashayapmiz, endilikda sotuvchi ko'rmasdan ham to'lovni amalga oshirib narsalar sotib olamiz, bundan nari borsa 10 tadan bitasi olib sotar bo'lishi mumkin.

Unutmang agar yetkazib berishni sotuvchiga ishonsangiz doim ortiqcha to'laysiz, chunki xitoylik O'zbekistonga yuk yuborish tajribasiga ega emas bo'ladi, u rasmiy eng qimmat yetkazib beruvchi kompaniyalarni topadi va siz to'lashga majbur bo'lasiz. Shuning uchun sotuvchi bilan doim FOB (mahsulotning ishlab chiqariladigan joyidagi narxi) narxini so'rash kerak va uni siz aytgan xitoyning ichidagi manzilga bepul yetkazib berishni iltimos qilish kerak. Bu yerdan, O'zbekistondan xitoydan yuk tashuvchi logistik kompaniya yoki odamlarni topasiz, ular xitoydagi o'z omborlarini manzili aytishadi va xitoylik yuklarni ularga yetkazib beradi, bu usul ancha arzon tushadi.


Beneficiary Bank Swift Code :	CITIHKHX or CITIHKHXXXX
Bank Code :	006
Branch Code :	391

- 2017-04-24 19:00:44 balance payment received
  - Payment amount : US \$153.00
  - Remitting bank :
  - Remitter account number :
- 2017-04-20 08:03:51 Buyer has completed the balance payment by credit card
  - Payment amount : US \$153.00
  - Remittance date : 2017-04-20
- 2017-04-20 07:43:41 Processing balance payment
  - Payment amount : US \$153.00
- 2017-04-19 19:00:38 Initial payment received
  - Payment amount : US \$1,295.40
  - Remitting bank :
  - Remitter account number :
- 2017-04-18 08:33:54 Buyer has completed the initial payment by credit card
  - Payment amount : US \$1,295.40
  - Remittance date : 2017-04-18
- 2017-04-18 08:13:58 Processing initial payment
  - Payment amount : US \$1,295.40

#### *1.4-rasm(narxlarni ko'zdan kechirish).*


Masalan mening misolimda, 0.3 kub metr, 170 kilogramlik yuk uchun 700 \$ to'lashimga to'g'ri keldi, aytish kerakki 9 kunda avia linya samolyot orqali yukim yetib keldi. Misol uchun, toshkentda xitoydan yuk tashuvchilar bilan gaplashsangiz 1 kub metr yukni bir oyda temir yo'l orqali yetkazib berish 150 \$ turadi. Va bu tovarni yetkazib berish narxi, bojxona narxiga qo'shiladi va bu uchun ham ortiqcha soliq to'lash demakdir, shuning uchun 2 karra zarar qilmaslik uchun yo'lqiraga alohida e'tibor berish kerak. Demak oddiy ketma ket tushuntirilsa, birinchi navbatta

kerakli mahsulot izlab topiladi, ikkinchi sotuvchi tekshiriladi va to'liq gaplashib olinadi:



1.5-rasm(sotuvchi bilan suhbat).

Uchinchi yon tomondagi panel orqali tovar haqida ma'lumot, yetkazib berish shartlari, narxi kiritilib sotuvchiga so'rov yuboriladi, sotuvchi rozi bo'lsa to'lov qilish mumkin bo'ladi. Yoki sotuvchi sizga yuborishi, siz rozi bo'lib to'lov qilishingiz kerak, muhimi e'tiborli bo'ling.



1.6-rasm(Sotuvchi bilan savdo qilish).

To'lov qilishni 3 xil usuli mavjud. Pul yuborish, Bank orqali to'lov qilish, va plastik karta orqali to'lov qilish, O'zbekiston eng osoni xohlagan bankdan borib visa karta ochish va o'sha orqali to'lov qilishdir. Albatta siz jiddiy firma egasi bo'lsangiz bank orqali valyutni hisob raqam ochib o'sha orqali to'lasangiz bo'ladi, ammo buni o'ziga yarasha murakkab jihatlari bor.

**Trade Assurance**

**Buyer Assurance**

Trade Assurance status: Awaiting confirmation

Description: You have selected pre-shipment coverage. You will be covered for the actual initial payment you make (excluding bank fee). Please check the quality of your products before shipment. If the product quality does not meet the standards agreed upon in your contract, please open a dispute before shipment.

### 1.7-rasm(to'lov qismi bilan tanishish).

To'lov qilganingizdan so'ng sotuvchiga ma'lum muddat tovarni tayorlash va jo'natish uchun beriladi, buni yuqoridagi panelda ko'rsatish mumkin edi, keyin yana ma'lum muddat yetkazib berishga beriladi, siz bu muddat ichida tovarni olganingizni tasdiqlashingiz va yomon sifatli bo'lsa Trade Assurance himoyasi orqali pulingizni qaytarib olishingiz mumkin.

**Trade Assurance**

**Buyer Assurance**

Trade Assurance status: Covered

Description: You have selected post-delivery coverage. You will be covered for the total amount of the actual payment you make (excluding bank fee). You can check the quality of your products after receiving the goods and open a dispute if there are any issues. You'll have 90 days from shipping and 15 days from customs clearance to confirm the quality of your order.

Product Name	Unit	Quantity
Blank DVD+R	Sheet(s)	30,000.00

### 1.8-rasm(to'lov qismidagi imkoniyatlar).

#### **1.4-§. Masalani qo'yilishi**

Eksport sur'atini yaxshilash maqsadida dunyo bozorlariga kirib borishning bir yo'li bu internet orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini reklama qilish va katta katta shartnomalarga erishish hisoblanadi. Shu asnoda takidlab o'tish lozimki onlayn savdo qilish bu juda arzon va qulay hisoblanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida yurtimizda oliy maqsad qilib qo'yilgan fermer xo'jaligi mahsulotlarini eksport sur'atini yaxshilashga tayangan holda quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lgan savdo tizimi yaratish masalasi ko'rib chiqildi va quyidagicha vazifalar belgilandi:

- savdoning onlayn bozor tizimini yaratish;
- onlayn savdo qilish va reklama salohiyatini oshirish;
- fermer xo'jaligida yetishtiriluvchi mahsulotlardan kelib chiqqan holda fermer xo'jaliklari nomidan mahsulotlarni sotuvga qo'yish;
- onlayn savdo tizimini yaratish modellarini o'rganish.



## II BOB. ONLAYN SAVDO TIZIMI ALGORITMLARI VA ILOVALARI

### 2.1-§. Onlayn savdo tizimini qurish uchun ishlatiladigan vositalari

Fermer xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish dasturiy ta'minotini yaratish uchun bir nechta vositalardan foydalaniladi. Hozirgi kunda yuqori texnologiyalar asosida ko'plab tizimlar va dasturiy ishlanmalar yaratilmoqda shulardan foydalangan holda onlayn savdo tizimini qurish uchun kerakli dasturlash tillari va ularga ko'maklashuvchi qo'shimcha vositalar bilan tanshib chiqamiz. Bular haqida so'z boshlashdan oldin dasturiy vosita qanday global tarmoqda shakllanishini ko'rib chiqamiz.

Internet tarmog'ida mazkur dasturiy ta'minot hamma uchun ochiq va qulay bo'lishi uchun dasturiy ta'minotni web ilova shaklda yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun bir qancha dasturlash tillari va web sahifa yaratish texnologiyalari zarur bo'ladi. Jumladan bular quydagilardir: **HTML** (HyperText Markup Language) ma'lum bo'lgan text va matnlar ko'rinishini yaratib beruvchi matn muharriri. **CSS** (Cascading Style Sheets) bu vosita juda qulay ishlash va dasturiy ta'minot ko'rinishi bilan shug'ullanuvchi vosita hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vositalar orqali dasturiy mahsulotning faqatgina ko'rinishini yarata olamiz. To'liq bir tizim yaratishimiz uchun dasturlash tillari zarur hisoblanadi. Fermer xo'jaligi mahsulotlari eksport tizimini yaratishda eng qulay bo'lgan dasturlash tilini tanlanadi. Hozirgi kunda web ilovalar yaratish bo'yicha eng qulay dasturlash tillaridan biri PHP dasturlash tilidir. Bu dasturlash tili moslashuvchan bo'lib, unga bog'lanish ham juda qulay, ya'ni API REST orqali boshqa operatsion tizimlar bilan ham bog'lanish qulay va onson. Har bir dasturlash tili o'z funksiya va imkoniyatlariga egadir.

Php dasturlash tili dasturiy mahsulotni dinamik severga bog'lanishini taminlaydi. Hozirgi kunda bir qator internet do'konlar onlayn savdo tizimini yaratish CMS lar orqali tayyor tizim qurish imkoniyati mavjud hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini yaratish uchun hozirgi kunda eng mukammal va mashhur bo'lgan Yii frameworkdan foydalanildi. Yuqorida sanab o'tilgan vositalar bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

HTML(HyperText Markup Language) – matn muharriri biz uchun juda yaxshi ishlashi va soddaligi bilan ajralib turadi. HTML tilining asosini teglar tashkil qiladi.

World Wide Web-da hujjatlar uchun standartlashtirilgan formatlash tili. Ko'pgina web sahifalarda HTML (yoki XHTML) formatlash tasvirlari mavjud. HTML tili brouzerlar tomonidan sharhlanadi. Olingan formatlangan matn kompyuter ekrani yoki mobil qurilmaning ekranida aks etadi. HTML 5 versiyadan avval HTML tili SGML ilovasi (ISO 8879 bo'yicha standart tovar belgilar tili) sifatida tavsiflangan. HTML5 spetsifikatsiyasi DOM (hujjat ob'ekti modeli) bo'yicha shakllantirilgan. XHTML tili HTMLning yanada qat'iy versiyasi bo'lib, XML sintaksisidan foydalanadi va gipermatn belgilash sohasida XML ilovasi. World Wide Webda HTML-sahifalar, odatda HTTP yoki HTTPS protokollari orqali serverdan brouzerlarga to'g'ri matn sifatida yoki shifrlashdan foydalaniladi.

HTML tili 1986-1991 yillar mobaynida Shveysariya'ning Jeneva shahrida CERN devorlarida ingliz olimi Tim Berners-Li tomonidan ishlab chiqilgan. HTML formatida ilmiy-texnik hujjatlarni almashish uchun til sifatida yaratilgan bo'lib, undan mutaxassis bo'lmagan odamlar ham foydalanishi mumkin. HTML tarkibiy va semantik elementlarning identifikatorlarini belgilash yo'li bilan SGMLning murakkabligi muammosiga muvaffaqiyatli erishildi. Tanlovchilarni ko'pincha "teglar" deb atashadi. HTML bilan osongina sodda, ammo chiroyli mo'ljallangan hujjat yaratishingiz mumkin. Hujjatning tuzilishini soddalashtirishdan tashqari, HTML ko'p tilli matni qo'llab-quvvatlaydi. Multimedia xususiyatlari keyinchalik qo'shildi. Dastlab, HTML tili ko'payish (display) vositasida ularni bog'lovchi holda qurish va hujjatlarni formatlash vositasi sifatida yaratilgan. Ideal, matn HTML tarkibi turli texnik uskunalalar bilan jihozlash bo'yicha uslubiy va tarkibiy vosita sifatida qabul qilindi.

Endi biz CSS haqida to'xtalib o'tamiz: CSS web sahifalarni yaratuvchilari tomonidan ranglar, shriftlar, alohida bloklarning joylashuvi va ushbu web sahifalarning ko'rinishini ifodalovchi boshqa jihatlarni aniqlash uchun ishlatiladi. CSS-ning asosiy maqsadi web sahifaning mantiqiy tuzilishini (HTML yoki boshqa formatlash tillaridan foydalanilgan holda) ushbu web sahifaning ko'rinishidan


(hozirda rasmiy CSS tili yordamida tuzilgan) tavsifini ajratishdan iborat edi. Ushbu ajratish hujjatning mavjudligini oshirishi, ko'proq moslashuvchanlik va taqdimotni boshqarish qobiliyatini ta'minlaydi, shuningdek tarkibiy tarkibdagi murakkablik va takroriylikni kamaytiradi. Bundan tashqari, CSS sizga brouzerni ishlatadigan qurilmalar orqali ekran ko'rinishini, bosma taqdimotni, ovozli o'qishni (maxsus ovozli brouzer yoki ekranni o'qish apparati) yoki chiqdi kabi turli uslublar yoki chiqish usullari bilan bir xil hujjatni taqdim etishga imkon beradi. CSS qoidalari rasmiy CSS tilida yozilgan va uslublar jadvallarida joylashgan, ya'ni uslublar varaqlarida CSS qoidalari mavjud. Ushbu uslublar varaqlari web hujjatning o'zida, ular tasvirlangan ko'rinishida va CSS formatidagi shaxsiy fayllarda joylashtirilishi mumkin. (aslida, CSS formati - oddiy matnli fayl : The.css fayli ularga CSS qoidalari va sharhlarining ro'yxati mavjud.) ya'ni, bu uslublar varaqlari to'rt xil usulda tasvirlangan web hujjatga biriktirilishi mumkin.

Agar uslub sahifasi alohida faylda bo'lsa, ushbu hujjatda joylashgan <link> yorlig'ini <head> va </ head> teglari orasidagi web dokumentga ulashingiz mumkin. (<Link> tegining ushbu uslub sahifasining manzili qiymati bo'lgan href xususiyati bo'ladi). Ushbu jadvalning barcha qoidalari hujjat bo'yicha amal qiladi.

## **2.2-§. Onlayn savdo qilish tizimi dasturiy ta'minotni loyihasi va uni ishlab chiqish**


Onlayn savdo tizimi yaratish uchun qo'llaniladigan texnologiyalardan foydalangan holda biz dasturiy ta'minotni loyihalashimiz mumkin bo'ladi.

Har-bir dasturiy ta'minot yaratilishidan oldin uning modeli ya'ni loyihasi shakllanadi. Loyiha ishlab chiqilgach esa dasturiy mahsulotning ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Buning uchun bizga lokal server zarur. Biz serverni o'z kompyuterimizga o'rnatib olamiz:



### 2.1-rasm(serverni o'rnatish).


Bu yerda biz severni qayerga o'rnatishni sozlashimiz mumkin bo'ladi.




### 2.2-rasm(serverni ishga tushirish).

O'rnatish jarayoni tugagach esa biz quydagiga duch kelamiz. Biz bu yerdan o'z kompyuterimiz holatidan kelib chiqqan holda yo'l tutamiz.

Keyin esa quydagi oynadan tilni tanlaymiz:




### 2.3-rasm(tilni tanlash).




#### 2.4-rasm(qo'shimcha komponenta o'rnatish).

Bu yerda “ok tugmasini bosamiz” va o’rnatish jarayonini tugatamiz. Biz ma’lumotlar bazasi bilan ishlagan paytda o’zimiz uchun kerak bo’lgan ma’lumotlar bazasi tili kerak bo’ladi. Bizning dasturiy mahsulotimiz ma’lumotlar bazasi juda katta bo’lmaganligi sababli biz “Mysql” ya’ni sql tilining vasitasini tanlaymiz. Buning uchun bizga openserverni ishga tushirib uning ichidan phpMyadmin tugmasini tanlaymiz:



#### 2.5-rasm(PhpMyAdmin tizimi ishga tushirish).



2.6-rasm(*phpMyAdmin tizimi*).

Bu yerda ma'lumotlar bazasi yaratib, uning jadvallarini yaratamiz:

Fermer xo'jaligi mahsulotlarini onlayn savdo qilish tizimini yaratish uchun kerak bo'ladigan jadvallarni qurib olamaiz. Bizga kerak bo'ladigan jadvallarning ko'rinishi quydagicha bo'ladi:


Foydalanuvchilar jadvali:

fermer user	
id	int(11)
username	varchar(255)
auth_key	varchar(32)
password_hash	varchar(255)
password_reset_token	varchar(255)
email	varchar(255)
status	smallint(6)
created_at	int(11)
updated_at	int(11)
ism	varchar(255)
familya	varchar(255)
sharif	varchar(255)
tel	varchar(255)
pas_sery	varchar(255)
manzil	varchar(255)
xojalik_nomi	varchar(255)
rol	varchar(255)

2.7-rasm(*foydalanuvchilar jadvali loyihasi*).

Bu jadvalda dasturiy ta'minotdan foydalanadigan barcha fodaluvchilarga maqom va login parollar tarqatiladi. Berilgan login va parol orqali saytga har bir fermer xo'jaligi rahbari o'z nomidan mahsulotlarni sotuv reklamasiga qo'shib qo'yadi.


Rol(mahsulot qo'shish) qo'shish jadvali:



	fermer rol
🔑	id : int(11)
📄	title : varchar(255)
📄	img : varchar(254)
📄	description : text
📅	date : date
📄	cat_id : varchar(255)
📄	narx : varchar(255)
#	user_id : int(11)

2.8-rasm(mahsulotlar jadvali loyihasi).

Bu jadvalda har bir fermer o'z login va paroli bilan mahsulotlarini kiritish maydonlariga ega bo'ladilar.



	fermer menu_list
🔑	id : int(11)
📄	title_uz : varchar(255)
📄	title_ru : varchar(255)
📄	title_en : varchar(255)
📄	url : varchar(255)



	fermer migration
🔑	version : varchar(180)
#	apply_time : int(11)

2.9-rasm(menyu va migratsiya jadvallar loyihasi).

Bu jadvallar esa bizga dasturiy mahsulotning ko'p tilli qilish va bazani text jamlanmasini saqlab qo'yadi.

Barcha jadvallarni birlashtirgan holda quydagi ma'lumotlar bazasini yaratamiz:

fermer user	fermer rol	fermer migration	fermer menu_list
id : int(11)	id : int(11)	version : varchar(180)	id : int(11)
username : varchar(255)	title : varchar(255)	apply_time : int(11)	title_uz : varchar(255)
auth_key : varchar(32)	img : varchar(254)		title_ru : varchar(255)
password_hash : varchar(255)	description : text		title_en : varchar(255)
password_reset_token : varchar(255)	date : date		url : varchar(255)
email : varchar(255)	cat_id : varchar(255)		
status : smallint(6)	narx : varchar(255)		
created_at : int(11)	user_id : int(11)		
updated_at : int(11)			
ism : varchar(255)			
familya : varchar(255)			
sharif : varchar(255)			
tel : varchar(255)			
pas_sery : varchar(255)			
manzil : varchar(255)			
xojalik_nomi : varchar(255)			
rol : varchar(255)			

### 2.10-rasm(ma'lumotlar bozasining umumiy loyihasi).

Fermer xo'jaligi mahsulotlarini onlayn savdo orqali eksport qilish tizimini yaratish ma'lumotlar bazasidan kelib chiqqan holda dasturiy mahsulotni qurishni boshlaymiz. Buning uchun bizga Yii2 framework ni o'rnatib olamiz.

```
composer create-project --prefer-dist yiisoft/yii2-app-advanced yii-application
```

### 2.11-rasm(kerakli faylni topish).

Bu yerda biz “ composer ” orqali framework ni o'rnatib olamiz: bu yerda biz o'z serverimizning domains popkasi ichiga tashlaymiz:



```
MINGW32:/c/OSPanel/domains
Welcome to Git (version 1.9.4-preview20140929)

Run 'git help git' to display the help index.
Run 'git help <command>' to display help for specific commands.

MRK@MRK-PC ~
$ cd c:

MRK@MRK-PC /c
$ cd OSPanel/


MRK@MRK-PC /c/OSPanel
$ cd domains/

MRK@MRK-PC /c/OSPanel/domains
$ composer create-project --prefer-dist yiisoft/yii2-app-advanced fermer.uz_
```

### 2.12-rasm(faylni o'rnatish).

Shunday qilib biz o'z saytimizni poydevorini qurib oldik endi esa bo'limlarni yaratib olamiz:

Buning uchun biz MVC sturukturani qurib olamiz bunda bizga yii2 frameworkning gii menu si kerak bo'ladi bu menu quydagi ko'rinishda bo'ladi:



### 2.13-rasm(gii dan foydalanish).

Bu yerdan biz model va CRUD qurib olamiz:


The screenshot shows the 'Model Generator' page of the Yii Code Generator. The browser address bar displays 'fermer.uz/frontend/web/gii/model'. The page features a sidebar with navigation links: Model Generator (selected), CRUD Generator, Controller Generator, Form Generator, Module Generator, and Extension Generator. The main content area is titled 'Model Generator' and includes a description: 'This generator generates an ActiveRecord class for the specified database table.' Below this, there are three input fields: 'Table Name', 'Model Class', and 'Namespace'. The 'Namespace' field is pre-filled with 'frontend\models' and highlighted in yellow.

2.14-rasm(Jadvallar uchun model yaratish).

The screenshot shows the 'CRUD Generator' page of the Yii Code Generator. The browser address bar displays 'fermer.uz/frontend/web/gii/crud'. The page features a sidebar with navigation links: Model Generator, CRUD Generator (selected), Controller Generator, Form Generator, Module Generator, and Extension Generator. The main content area is titled 'CRUD Generator' and includes a description: 'This generator generates a controller and views that implement CRUD (Create, Read, Update, Delete) operations on a model.' Below this, there are four input fields: 'Model Class', 'Search Model Class', 'Controller Class', and 'View Path'.

2.15-rasm(model dan kelib chiqqan holda CRUD yaratish).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlardan foydalangan holda fermer xo'jaligi mahsulotlarini sotuvga qo'yish tizimi qurib boriladi.




2.16-rasm(tizimning tashqi tomondan ko'rinishi).

Fermer xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish savdo tizimi ko'rinishi yuqoridagidek bo'ladi. Mahsulotlarni sotish va xarid qilish maxsus shartnoma asosida bo'lib o'tadi. Shartnomani har bir fermer xo'jaligi kiritib boradi. Xaridorlar esa shartnomani o'ziga yuklab olib qayta saytga yana joylashi lozim bo'ladi.


### 2.3-§. Foydalanuvchi uchun yo'riqnoma

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini onlayn savdo qilish tizimida ko'plab fermer xo'jaligi rahbarlariga imkoniyatlar mavjud hisoblanadi. Mahsulotlarni shartnoma asosida sotish ular orqali foyda qilish va yuqori darajali reklama sifatini yaxshilash uchun tizim quydagi yo'riqnoma asosida ishlaydi.




3.1-rasm(bu yerda fermer xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimi ko'rinishi ko'rsatilgan).

Fermer xo'jaligi rasmiy web sayti yuqorida ko'rinib turganidek yuqori qismida menyular satri undan sal pastroqda esa tillar paneli ko'rsatilgan. Bosh sahifa ko'rinishi yuqoridagidek tasvirlangan.




3.2-rasm(bu yerda esa bosh sahifaning sal pastki qismi joylashgan).

Joriy qismda fermer xo'jaligi rahbarlari uchun eng so'ngi eksport yangiliklari ko'rsatilib boriladi.



3.3-rasm(rasmda sotuvga qo'yilgan mahsulotlar jamlanmasi aks etgan).

Fermer xo'jaligi mahsulotlarini onlayn savdo qiluvchi tizimda sotuvga qo'yilgan mahsulotlar va ular haqida to'liq ma'lumotlar bosh sahifada aks etgan.




3.4-rasm(mahsulotlar haqida ma'lumotlar berib borilgan).

Mahsulotlar sifatini va ularni yaqindan ko'rish uchun biz mahsulotlarni batafsil ko'rish tugmasini bosishimiz kerak bo'ladi.

Mahsulotlar haqida to'liq ma'lumot beruvchi bu qismda biz quyidagilarni ko'ramiz:

BOSH SAHIFA	MAXSULOT QO'SHISH	KIRISH	RO'YHATDAN O'TISH
-------------	-------------------	--------	-------------------

## Olma


<b>Maxsulot nomi</b>	Olma
<b>Name</b>	
<b>Maxsulot xaqida malumot</b>	O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati. "Soliha" fermer xo'jaligi.
<b>Miqdor</b>	15 tonna
<b>Narx</b>	3000

MAXSULOT HARID QILMOQCHIMISIZ  
MARXAMAT

**Maxsulot nomi:**

**Narxi:**

**Miqdori:**

Shartnomani yuklab olish: 

*3.5-rasm (bunda tanlagan mahsulot haqida ma'lumot aks etiriladi).*


Ya'ni mahsulot sur'ati, mahsulot haqida ma'lumotlar(qaysi fermer xo'jalik tomonidan yetishtirilganligi), qancha miqdorda fermer xo'jalik omborida mavjudligi, narxi qancha ekanligi ko'rsatiladi.

Bundan kelib chiqqan holda xaridor qancha mahsulot kerak bulsa miqdor maydoniga kiritishi lozim sanaladi.

Agarda biz miqdorni kiritib uni "Cart" ga jo'natsak biz boshqa mahsulotlarni ham xarid qilish imkoniyatiga osonroq erishamiz. Agar biz faqat shu mahsulot bilan cheklansak mazkur shartnomani o'zimizga yuklashimiz kerak bo'ladi, keyin esa biz ro'yxatdan o'tgan holda shartnomani imzolab qayta tizimga kiritamiz va mahsulotni xarid qilish shartlariga ega bo'lamiz.

BOSH SAHIFA	MAXSULOT QO'SHISH	KIRISH	RO'YHATDAN O'TISH
-------------	-------------------	--------	-------------------

## Olma


<b>Maxsulot nomi</b>	Olma
<b>Name</b>	
<b>Maxsulot xaqida malumot</b>	O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati. "Soliha" fermer xo'jaligi.
<b>Miqdor</b>	15 tonna
<b>Narx</b>	3000

MAXSULOT HARID QILMOQCHIMISIZ  
MARXAMAT

**Maxsulot nomi:**

**Narxi:**

**Miqdori:**

Shartnomani yuklab olish: 

*3.6-rasm(shartnomani yuklash).*

Mahsulotni sotib olish paytida boshqa mahsulotlarni ham sotib olish mumkin hisoblanadi. Buning uchun mahsulotni “cart”ga jo’natish kerak bo’ladi.




BOSH SAHIFA		MAXSULOT QO'SHISH		KIRISH		RO'YHATDAN O'TISH	
							
SIZ TANLAGAN MAXSULOTLAR RO'YHATI							
№	MAXSULOT	SUMMA	SURATI	YETISHTIRUVCHI	SHARTNOMA	O'CHIRISH	
1	Shaftoli	\$900000		O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati. "Narqul ota" fermer xo'jaligi.			
Jami summa:900000							

### 3.7-rasm(bunda faqat bitta mahsulot “cart”ga junatilgan holati).

Agarda xaridor mahsulotlardan yana qo’shimcha xarid qilmoqchi bo’lsa bosh sahifaga qaytib boshqa mahsulot tanlashi mumkin hisoblanadi.

Boshqa mahsulotni tanlash paytida ham yana bir bora mahsulotning miqdorini kiritish kerak bo’ladi.

Xarid qilinuvchi mahsulotlar jami summasi “cart”da hisoblab boriladi.

BOSH SAHIFA		MAXSULOT QO'SHISH		KIRISH		RO'YHATDAN O'TISH	
							
Olma				MAXSULOT HARID QILMOQCHIMISIZ MARXAMAT			
Maxsulot nomi	Olma						
Name							
Maxsulot xaqida malumot	O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati. "Soliha" fermer xo'jaligi.						
Maxsulot nomi:	<input type="text" value="Olma"/>						
Narxi:	<input type="text" value="16000"/>						
Miqdori:	<input type="text" value="120"/>						
<input type="button" value="Cartga junatish"/>						Shartnomani yuklab olish: 	

### 3.8-rasm(bunda boshqa mahsulot qo’shimcha qilib xarid qilinmoqda).

Mahsulot qo’shimcha qilib jo’natilgach “cart”dagi holat quyidagicha bo’ladi.



## SIZ TANLAGAN MAXSULOTLAR RO'YHATI

№	MAXSULOT	SUMMA	SURATI	YETISHTIRUVCHI	SHARTNOMA	O'CHIRISH
1	Shaftoli	\$1080000		O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati. "Narqul ota" fermer xo'jaligi.		
2	Olma	\$1920000		O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati. "Soliha" fermer xo'jaligi.		

Jami summa:3000000

*3.9-rasm(qo'shimcha mahsulot xarid qilish).*

Bunda mahsulotlarning jami summasi hisoblanib boriladi.

Mahsulotlarni xarid qilish shartlari bilan tanishgan holda xaridor uchun imkoniyatlarni yaxshilash maqsadida "cart" tushunchasi yaratilgan bu jarayonda yana qo'shimcha mahsulot sotib olinmoqda.



## SIZ TANLAGAN MAXSULOTLAR RO'YHATI

№	MAXSULOT	SUMMA	SURATI	YETISHTIRUVCHI	SHARTNOMA	O'CHIRISH
1	Anor	\$1200000		O'zbekiston Respublikasi Xorazim Viloyati Xonqa tuman. " Asqar Moxinur " fermer xo'jaligi mahsuloti.		
2	Shaftoli	\$1800000		O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati. "Narqul ota" fermer xo'jaligi.		
3	Olma	\$3200000		O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati. "Soliha" fermer xo'jaligi.		

Jami summa:6200000

*3.10-rasm(qo'shimcha mahsulot xarid qilish).*



Fermer xo'jaligi mahsulotlarini tizimga kiritish uchun har bir fermer xo'jaligi quyida ko'rsatilgan tartibda ro'yxatdan o'tishi lozim hisoblanadi.

BOSH SAHIFA				MAXSULOT QO'SHISH				KIRISH				RO'YHATDAN O'TISH			
-------------	--	--	--	-------------------	--	--	--	--------	--	--	--	-------------------	--	--	--

**RO'YHATDAN O'TISH**

Please fill out the following fields to signup:

<b>Ism</b>	<input type="text"/>	<b>Pas Sery</b>	<input type="text"/>	<b>Tel</b>	<input type="text"/>
<b>Familiya</b>	<input type="text"/>	<b>Xp</b>	<input type="text"/>	<b>Username</b>	<input type="text"/>
<b>Sharif</b>	<input type="text"/>	<b>Mfo</b>	<input type="text"/>	<b>Email</b>	xasan
<b>Manzil</b>	<input type="text"/>	<b>Inn</b>	<input type="text"/>	<b>Password</b>	.....
<b>Xo'jalik Nomi</b>	<input type="text"/>				

*3.11-rasm(ro'yxatdan o'tish).*

Ro'yxatdan o'tish uchun yuqorida ko'rsatilgan maydonlar to'ldirilishi zarur hisoblanadi.

BOSH SAHIFA				MAXSULOT QO'SHISH				KIRISH				RO'YHATDAN O'TISH			
-------------	--	--	--	-------------------	--	--	--	--------	--	--	--	-------------------	--	--	--

**RO'YHATDAN O'TISH**

Please fill out the following fields to signup:

<b>Ism</b>	Raximbaev	<b>Pas Sery</b>	AA-223-73-71	<b>Tel</b>	+998-97-452-92-90
<b>Familiya</b>	Musobek	<b>Xp</b>	20208000900802252001	<b>Username</b>	xasanota
<b>Sharif</b>	Komiljon o'g'li	<b>Mfo</b>	00553	<b>Email</b>	musobek@gmail.com
<b>Manzil</b>	Yangibozor tumani hayvat mahalla	<b>Inn</b>	305067309	<b>Password</b>	.....
<b>Xo'jalik Nomi</b>	" Xasan ota " fermer xo'jaligi				

*3.12-rasm(tizimdan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tish maydonlarini to'ldirilishi uchun namuna).*

Agarda siz ro'yxatdan o'tish jarayonidan to'g'ri o'tgan bo'lsangiz sizda quydagi menyular paneli hosil bo'ladi.



### 3.13-rasm(tizimga kirgan foydalanuvchining logini).

Endi esa biz tizimga mahsulot qo'shishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun menyular panelidan "mahsulot qo'shish" tugmasini tanlaymiz va quyidagi oynani hosil qilamiz.

MAXSULOT QO'SHISH

Maxsulot nomi

Maxsulot turi

Poliz ekinlari

Maxsulot xaqida ma'lumot

Narx

Miqdor

Sana

mm/dd/yyyy

Foydalanuvchi raqami

5

Image File

Choose File No file chosen

Shartnoma

Choose File No file chosen

Yaratish

### 3.14-rasm (mahsulot qo'shish menyusi).

MAXSULOT QO'SHISH

Maxsulot nomi

Anor

Maxsulot turi

Quruq mevalar

Maxsulot xaqida ma'lumot

"xasan ota" fermer xo'jaligi mahsuloti

Narx

12000

Miqdor

5 dona

Sana

06/10/2018

Foydalanuvchi raqami

5

Image File

Choose File 123.jpg


Shartnoma

Choose File shartnoma.docx

Yaratish

3.15-rasm (anor mahsuloti tizimda sotuvga qo'yish uchun mahsulot maydonlari to'ldirilganligiga namuna).

Mahsulot tizimda sotuvga qo'yilgach "Bosh sahifa"da aks etadi:



3.16-rasm(mahsulot sotuvga qo'yilgani haqida ma'lumot).

Yuqorida ko'rsatilgan ketma-ketliklar bajarilgan holda yaratilgan fermer xo'jaligi mahsulotlarini sotuvga qo'yish tizmidan foydalaniladi.

### **III-BOB. KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA XAVFSIZLIKGA ROIYA QILISH**

#### **3.1-§. Kompyuterda ishlaganda xavfsizlik choralari**

Ma'lumki kundalik hayotimizni shaxsiy kompyuterlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shaxsiy kompyuterlar hozirgi kunda hayotimizning barcha tarmoqlariga kirib kelgan va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ammo har bir qurilmadan foydalanishda xavfsizlik talablariga rioya qilish bu hayot talabi.

Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishda ham xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bu kishi organizmini turli xavfli omillardan zarar topishi yoki jarohatlanishini oldini oladi.

Eng avvalo kompyuterlardan foydalanishda ular uchun sanitariya va gigiena talablariga mos holda bino tanlash va ularni yong'in xavfsizligi vositalari, birinchi tibbiy yordam qutichalari bilan jihozlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya hamda Sog'liqni saqlash vazirliklari tomonidan belgilangan talablar asosida, kompyuterlardan professional foydalanuvchilar ishga kirishdan oldin va davriy ravishda tibbiy ko'riklaridan o'tishlari shart. Homilador va emizikli farzandi bor ayollar uchun kompyuterda ishlash zararli.

Ish o'rinini to'g'ri tashkil qilish, kishilarni turli kasbiy kasallanishlarga yo'liqishini oldini olishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarishda xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitini yaratish, har bir rahbar va mas'ul xodimning vazifasi bo'lib, bunda nafaqat kishilarga sog'lom ish muhiti yaratiladi, balki ishlab chiqarishda samaradorlikni oshishiga ham olib keladi.

Zamonaviy avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishda inson operatorning psixologiya va fiziologiyasi asosiy rolni egallaydi. Ishlab chiqarishda mehnat sharoitini yaxshilash va ilmiy asosda aniqlash, mehnatni to'g'ri ishlash maromini ta'minlash, mehnat tartibi va dam olishni tashkil qilish zarur.

Kompyuter bilan ishlash vaqtida inson quyidagi faktorlardan charchaydi:

- ekranni yorug'ligi;

- kontrast va fon o'rtasidagi aniqligi;
- kompyuterda ishlash paytidagi issiqlikdan nurlanishi;
- kompyuterda nurlanishning insonga ta'siri;
- kompyuter buzuqligi.

Display bilan ishlaydigan EHM operatorlarida asosan, bosh og'rishi, bel, elka, orqa og'rishi, ko'z charchashi kuzatiladi.

Mehnat sharoitini yaxshilash maqsadida tashkiliy, gigienik, texnikaviy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va ishchi-xizmatchilar orasida mehnat gigienasi norma, qoidalariga rioya etish bo'yicha tashviqot ishlari olib boriladi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi sanitariya-texnologik, tashkiliy tadbirlarni ifodalaydi va ishlab chiqarishda sog'lom mehnat sharoitlarini ta'minlaydi. Shu maqsadda ishchi-xizmatchilarning salomatligiga ta'sir qiluvchi texnologik jarayon va uskunalardagi kamchiliklarni yo'qotish yo'llarini ishlab chiqardi. Buning uchun sanoat korxonalarida texnika taraqqiyoti yutuqlaridan unumli foydalanishni, jarayonlarni olisdan boshqarish va ishchilarni zararli muhitda ishlashlarining oldini olishni, uskunalarni, qurilmalarni ochiq maydonda joylashtirishni, havo tarkibini tekshirib turishni, qo'l mehnatini talab qiladigan ishlarda imkoni boricha mexanizasiya vositalari va zamonaviy uskunalarni qo'llashni, himoya vositalaridan foydalanishni zarur deb hisoblaydi.

Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlashda ergonomikaning ham ahamiyati katta. Ergonomikada insonning mehnat faoliyati jarayonida qulay, xavfsiz sharoitlarni yaratishga, mehnat unumdorligini oshirishga bog'liq bo'lgan imkoniyatlar o'rganiladi.

Bajarilayotgan turli jarayonlar va unga bog'liq bo'lgan uskuna, qurilmalar doirasida axborotni etkazuvchi-ko'rsatuvchi moslama-mashina modeli bo'lsa, operator murakkab tizimda bo'lsa ham, boshqarish ishlarini amalga oshiradi. Bu vazifani bajarish uchun shunday axborot modeli yaratilishi kerakki, bu model o'z vaqtida mashinaga taalluqli ta'rifni berishi, natijada operator toliqmasdan, fikrlab va e'tibor bilan axborotni xatosiz qabul qilib qayta ishlashi lozim. Murakkab hisoblangan vazifani yechish operatorning xavfsizligiga, aniq sifatli ishlashiga,

mehnat unumdorligiga, shuningdek insonning psixofiziologik imkoniyatlarini axborot modeliga mos bo'lishiga bog'liqdir.

Biofizik moslik operatorning ish qobiliyatini, normadagi fiziologik holatini ta'minlaydigan atrof-muhitning yaratilishini ifodalaydi. Insonning kuchi va energetik qobiliyati ma'lum chegaraga ega. Shuning uchun ish jarayonida boshqarish tizimida charchash maqsadga muvofiq bo'lmagan oqibatga olib kelishi mumkin. Energetik moslik esa operatorning optimal imkoniyatlari asosida talab qilinadigan kuch, sarflanadigan quvvat, harakatning aniqligi va tezligi bilan mashinani boshqarilishidagi kelishuvni ifodalaydi.

Fazoviy-antropometrik moslik inson tanasi o'lchami, tashqi fazoning ta'sirli imkoniyatlari, ish jarayonida operatorning vaziyati, gavdaning turishi hisobga olinishini ifodalaydi. Vazifaning to'g'ri hal qilinishida ish joyi hajmi, operator harakatlanadigan masofa, balandlik, boshqaruv pultigacha bo'lgan oraliq va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Bulardan tashqari insonning psixik faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Insonning qobiliyati, samarali mehnat faoliyati uning psixik kuchlanish darajasiga bog'liq. Operator uchun normal sharoitdagi his-tuyg'u va mehnat qilishi uchun ruhiy kuchlanish darajasi 40-60h dan oshmasligi ko'zda tutiladi, aks holda bu uning ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Mehnat sharoitini yaxshilash chora-tadbirlar orasida eng asosiysi ishchining ish holati va ish maromidir.

Texnika rivojlangan hozirgi davrda kompyuterning bizga ko'rsatadigan yordami beqiyos. Har qanday ish, reja va dasturlarni orqali bajarish yumushlarimizni mislsiz darajada yengillashtiradi. Biroq ana shu mislsiz foyda qatorida uning zararli oqibatlari ham talaygina. Bular qanday oqibatlar ekanligini yaxshi bilasiz. U haqda juda ko'p aytilmoqda. Hatto «aql mashinasi»dan foydalanganda ko'riladigan xavfsizlik choralari haqidagi tavsiyalardan ham xabardorsiz. Biroq unga har doimham amal qilinavermaydi.

Misol uchun oladigan bo'lsak, kompyuterda uzoq vaqt ishlaydiganlar har bir soatdan keyin o'n daqiqa undan uzoqda dam olishi zarurligini bilgan holda,

kompyuterning qarshisida soatlab o'tiradi yoki ko'zni «aql mashinasi»dan chiqayotgan ko'rishga ta'sir etuvchi nurlardan himoya qilish maqsadida ishlab chiqilgan maxsus ko'zoynaklar borligini ko'pchilik bila turib, undan foydalanmaydi. Ammo hamma amal qiladigan bittagina jihat bor. U ham bo'lsa, kompyuterning oldiga kaktus gulini qo'yishdir. Negadir, uni barcha kompyuterda ishlaydiganlar chiqayotgan zararli nurlarga nisbatan himoya vositasifatida tan oladilar. Xo'sh, aslida ham shundaymi? Mutaxassislarning fikricha, haqiqatan ham kaktuslar kompyuterdan chiqadigan nurni o'ziga tortadi, biroq faqat ma'lum qisminigina, xolos.



*1.1-rasm(kompyuterdan chiqayotgan nurlanishning insonga ta'siri).*

Shunday ekan, ekran qarshisida o'tirgan odam ham zararli nurlarning o'ziga tegishli ulushidan bebahra qolmaydi. E'tiborli jihati shundaki, kaktuslar yorug'likni juda sevadigan gul hisoblanadi. Shuning uchun ekrandan chiqayotgan yorug'lik ularning quyosh nuriga ehtiyojini ma'lum darajada qoplaydi. Bundan tashqari, kaktuslarni kompyuter qarshisiga qo'yishningsababi faqat zararli nurning insonga nisbatan ta'sirini kamaytirish uchun emas. Yana mutaxassislarning fikriga e'tibor beradigan bo'lsak, kompyuter oldiga qo'yilgan kaktuslar birinchi navbatda estetik ruhni kuchaytirishga (shu ma'noda, xonada qancha kaktus bo'lsa, shuncha yaxshi), ikkinchidan, ishga xalaqit bermasligiga qarab va uchinchidan, boshqa gullarga qaraganda kam suv talab qilishi bilan shu yerga qo'yilar ekan. Nima bo'lganda ham, kompyuterda ishlaganda yoningizda kaktusning bo'lgani baribir yaxshi, hech bo'lmasa, ko'zni chalg'itadi.

### **3.2-§. EHM operatorining charchashini oldini olish**

Tananing ish qobiliyati birinchi galda markaziy asab tizimining holatiga bog'liq, markaziy asab tizimiga esa ijtimoiy muhit sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Ish kuni va haftasining davomiyligini qisqartirish toliqishning oldini olishda eng muhim vosita hisoblanadi.

Ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni mexanizatsiyalashtirish, yarim avtomat va avtomatlashgan texnologiya jarayonlariga o'tish mehnatni engillashtirib, ishlab chiqarish muhitini birmuncha qulay sharoitga keltirib, toliqish rivojlanishining oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishda toliqishga qarshi kurash ko'pgina yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilib, ular orasida so'nggi yillarda ergonomika, ishlab chiqarish estetikasi kabi yangi yo'nalishlar ham vujudga keldi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida mashq qilishdan foydalanish ish qobiliyatini oshirishga kiradi. Muntazam mashq qilib borish unumli ishlashning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Mashq jarayonida ishdagi xatti-harakatlar takomillashadi, ular birmuncha tartibli va tejamli bo'lib qoladi. Muntazam mashqlar tanada qator ijobiy siljishlar yuz berishiga olib keladi: mushak kuchi va chidamlilik oshadi, yurak-tomirlar va nafas tizimi faoliyati yaxshilanadi. Aqliy mehnatda mashqlar xotira, diqqat, iroda kabilarning takomillashuviga imkon beradi.

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish, mehnat unumdorligini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bunda avvalo, eng zamonaviy texnologiyadan, mashina, mexanizmlar va boshqa jihozlarning mukammal turlaridan foydalanishga, mehnatni to'g'ri tashkil qilishga asoslaniladi. Ayni vaqtda mehnat fiziologiyasi va ruhiyati talablarga rioya qilish uning ajralmas qismidir.

Asosiy fiziologik talablarga mehnat maromi, mehnat va dam olishning samarali tartibini tashkil etish kiradi. Bir maromdagi mehnat — smena, hafta, oy, yil maboynida bir tekisda bajariladigan mehnatdir. Mehnatning maromliligiga talab qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarini to'g'ri navbatlashda asab markazlarining



fiziologik xususiyatlarini hisobga olish asoslangan. Maromli mehnat asab va mushak quvvatiy oqilona sarflash, mehnat faoliyatining hamma davrlarida ish qobiliyatini quvvatlab turish imkonini beradi.

Uskunalarining nosozligi, materiallar, asbob-uskunalarining bo'lmashligi sababli ishdagi majburiy tanaffuslar ish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnat maromining buzilishi ishga berilish bosqichida erishilgan natijani yo'qotishga sabab bo'lib, ish qobiliyatining boshlang'ich bosqichini birmuncha past darajaga qaytaradi. Ayni vaqtda ishda tez-tez bo'lar-bo'lmasga tanaffus qilaverish salbiy ehtirolarni keltirib chiqaradi, bu ish qobiliyatini pasaytiribgina qolmay, balki ko'p takrorlanaverganda yurak-tomirlar patologiyasi rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Oylik va uch oylik rejalar nomuntazam bajariladigan (oy va chorak oxirida shoshilinch ishlar) korxonalarda ishchilar o'rtasidagi kasallanishni tahlil qilish ortiqcha charchash, shoshma-shosharlik va asab buzilishiga olib keladigan sharoit, ishdan keyin qolib ishlash soatlarining ko'payishi va hatto dam olish kunlarida ishlash surunkali kasalliklar, shamollash kasalliklarining o'sishiga olib kelishini ko'rsatdi. Kasallanish hodisalarining ko'p qismi «ishga hujum qilingan» oydan keyingi birinchi o'n kunlikka to'g'ri keladi. Qator korxonalarda maromli ishni joriy qilish mehnat unumdorligining 18—20%ga oshirishga va umumiy hamda kasbga doir kasallanishning pasayishiga olib keladi.

